



XALQ DEPUTATLARI UCHKO‘PRIK TUMANI KENGASHINING QARORI

2023 - yil 1 - may

VI-75-86-11-162-K/23

Uchko‘prik tuman hokimligi

Uchko‘prik tumanidagi ma‘muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “O‘zbekiston Respublikasi ma‘muriy-hududiy tuzilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-635-son Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 2022-yil 13-sentabrdagi “Farg‘ona viloyatining Uchko‘prik, O‘zbekiston, Dang‘ara, Qo‘shtepa, Toshloq, Farg‘ona tumanlari va Qo‘qon, Marg‘ilon, Farg‘ona shaharlari chegaralarini o‘zgartirish to‘g‘risida”gi SQ-624-IV-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma‘muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, shuningdek Respublika aerogeodeziya markazi Farg‘ona hududlararo bo‘linmasi tomonidan tuman hududidagi ma‘muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yuzasidan o‘rganish yakunlari bo‘yicha keltirilgan hujjat va ma‘lumotlarni ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Uchko‘prik tumani Kengashi sessiyasi

QAROR QILADI:

1.O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 2022-yil 13-sentabrdagi SQ-624-IV-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-son qarori Rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2.Respublika aerogeodeziya markazi Farg‘ona hududlararo bo‘linmasi tomonidan tuman hududidagi ma‘muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniga ko‘ra:

tumanning umumiy perimetri 43 2347,97 metr, tuman umumiy maydoni 27 194,41 gektar ekanligi 1-ilovaga muvofiq;

tumanning ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari sxemasi 2- ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Tuman hokimligi matbuot kotibi A.Ermatov mazkur Kengash qarorini tuman hokimligi "Yangi Farg'ona" gazetasida, shuningdek rasmiy internet-kanallar va ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirilishini ta'minlasin.

4.Ushbu Kengash qarori qabul qilinishi munosabati bilan xalq deputatlari tuman Kengashining 2023-yil 12-aprel kunidagi VI-75-73-11-162-K/23-son qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

5.Mazkur Kengash qarori sessiya oralig'ida chiqqanligini inobatga olgan holda, masala yuzasidan mas'ullarning hisobot va axborotlarini xalq deputatlari tuman Kengashining navbatdagi sessiyasida atroflicha muhokama qilinishi belgilab qo'yilsin.

6.Ushbu Kengash qarorining tasdig'i xalq deputatlari viloyat Kengashidan so'z ralsin.

7.Mazkur Kengash qarorining ijrosini ta'minlab borishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib tuman hokimining o'rinbosari D.Qurbonov va Kadastr agentligi tuman bo'limi boshlig'i X.Karimov belgilansin.

Qaror bajarilishini nazorat qilish vazifasi xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (Turanov) hamda xalq deputatlari tuman Kengashining "Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya bo'yicha" doimiy komissiyasi raisi SH.Qobilov zimmasiga yuklansin.

8.Ushbu Kengash qarori rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiritiladi.

**Xalq deputatlari Uchko'prik
tumani Kengashi Rahbari**



A. Q. Asqarov

Xalq deputatlari Uchko‘prik
tuman Kengashining
2023 yil 1 maydagi
VI-75-86-11-162-K/23-son
qaroriga
1-ilova

**Uchko‘prik tumanidagi ma‘muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash
to‘g‘risida**

MA‘LUMOT

**SHaharchalarning umumiy perimetri 87189,29 metr, umumiy maydoni
1929,40 gektar ekanligi aniqlandi.**

SHundan:

Bekobod shaharchasining umumiy perimetri 7952,92 metr ekanligi, umumiy maydoni 194,12 gektar;

Bog‘ibo‘ston shaharchasining umumiy perimetri 12752,54 metr ekanligi, umumiy maydoni 390,58 gektar;

G‘ijdon shaharchasining umumiy perimetri 6717,36 metr ekanligi, umumiy maydoni 171,60 gektar;

Katta Qashqar shaharchasining umumiy perimetri 9748,31 metr ekanligi, umumiy maydoni 184,54 gektar;

Qumariqobod shaharchasining umumiy perimetri 8950,06 metr ekanligi, umumiy maydoni 157,37 gektar;

Mirzaxo‘ja shaharchasining umumiy perimetri 4906,59 metr ekanligi, umumiy maydoni 85,08 gektar;

Poloxon shaharchasining umumiy perimetri 7246,81 metr ekanligi, umumiy maydoni 166,35 gektar;

Sobirjon shaharchasining umumiy perimetri 7060,55 metr ekanligi, umumiy maydoni 166,57 gektar;

Turg‘oq shaharchasining umumiy perimetri 7159,99 metr ekanligi, umumiy maydoni 139,37 gektar;

Uchko‘prik shaharchasining umumiy perimetri 9697,44 metr ekanligi, umumiy maydoni 185,68 gektar;

Yangiqishloq shaharchasining umumiy perimetri 4996,71 metr ekanligi, umumiy maydoni 88,15 gektar.

Qishloq yerlarining umumiy perimetri 331478,33 metr, umumiy maydoni 25265,01 gektar ekanligi aniqlandi.

SHundan:

G'ijdon qishlog'ining umumiy perimetri 43587,52 metr ekanligi, umumiy maydoni 1409,87 gektar;

Kenagas qishlog'ining 1-qism umumiy perimetri 59406,06 metr ekanligi, umumiy maydoni 4953,35 gektar;

Kenagas qishlog'ining 2-qism umumiy perimetri 2381,06 metr ekanligi, umumiy maydoni 30,24 gektar;

Navro'z qishlog'ining umumiy perimetri 37264,54 metr ekanligi, umumiy maydoni 2924,39 gektar;

Poloxon qishlog'ining umumiy perimetri 22551,24 metr ekanligi, umumiy maydoni 1387,13 gektar;

Sariqo'rg'on qishlog'ining umumiy perimetri 54319,48 metr ekanligi, umumiy maydoni 7558,86 gektar;

Uchko'prik qishlog'ining umumiy perimetri 39192,05 metr ekanligi, umumiy maydoni 2387,91 gektar;

CHorbog' qishlog'ining umumiy perimetri 27878,97 metr ekanligi, umumiy maydoni 2308,63 gektar;

Yangiqishloq qishlog'ining umumiy perimetri 44897,42 metr ekanligi, umumiy maydoni 2278,61 gektar.

Xalq deputatlari Uchko'prik
tuman Kengashining
2023 yil 1 maydagi
VI-75-86-11-162-K/23-son
qaroriga
2-ilova

